



doi [doi.org/10.55439/ECED/vol24 iss3/a16](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a16)

SANOAT KORXONALARINING INNOVATSIYON RIVOJLANISHI MUAMMOLARI

Otamurodov Shavkat Nusratillaevich -
i.f.d., DSc. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Iqtisodiyot va aniq fanlar kafedrasi dotsenti

Farmonova Maftuna Norpo'lat qizi -

Termiz davlat universiteti,
Iqtisodiyot va turizm fakulteti,
Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarida innovatsiyalarning o'rni va uni samarali jihatlarini o'rganish shuningdek davlat tomonidan sanoat tarmog'i korxonalarini innovatsion rivojlanishini qo'llab quvvatlash yo'llari, rivojlantirish muammolari aniqlangan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, sanoat, tarmoq diversifikatsiyasi, texnologik rivojlanish, iqtisodiy o'sish.

ПРОБЛЕМЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Отамуродов Шавкат Нусратиллаевич -

Доктор экономических наук, Термезский
университет экономики и сервиса,
доцент кафедры экономики и точных наук

Фармонова Мафтунна Норпулатовна -

Преподаватель кафедры экономики
факультета Экономики и туризма
Термезского государственного университета

Аннотация. В данной статье рассматривается роль инноваций в повышения эффективности производства промышленных предприятий и развития данной отрасли в регионе, а также пути государственной поддержки инновационного развития промышленных предприятий, выявлены основные проблемы инновационного развития отрасли и разработаны научно обоснованные предложения по их устранению.

Ключевые слова: инновации, промышленность, отраслевая диверсификация, технологическое развитие, экономический рост.

PROBLEMS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

Otamurodov Shavkat Nusratillaevich -
Doctor of Economic Sciences, Termez University of
Economics and Service, Associate Professor of the
Department of Economics and Exact Sciences.

Farmonova Maftuna Norpulatovna -

Lecturer, Department of Economics,
Faculty of Economics and Tourism,
Termez State University

Annotation. This article discusses the role of innovation in improving the efficiency of production of industrial enterprises and the development of this industry in the region, as well as ways of state support for the innovative development of industrial enterprises, identifies the main problems of innovative development of the industry and developed scientifically based proposals for their elimination.

Key words: innovation, industry, diversification of the industry, technological development, economic growth.

Kirish. Bugungi kunda sanoat korxonalarining an'anaviy bozorlarda raqobatbardoshligini saqlab turishi va yangi bozorlarga kirib borishida korxonalarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Innovatsiya-bu yangilik va uni jamiyatga tatbiq etish demakdir, sanoat esa iqtisodiyotimizni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Shu sababli korxonalar iqtisodiy

barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda ularning innovatsion jihatdan rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash, faoliyatiga joriy etish va munta-zam rivojlantirib borish har bir korxona uchun muhim hisoblanadi.

Korxonalarining innovatsion rivojlanishi nafa-qat ishlab chiqarish jarayoni, balki ularning samarali faoliyati bilan bog'liq barcha sohalarni, shu jumla-

dan ishlab chiqarishni tashkil etish, zamonaviy menejment va marketing kabi sohalarni qamrab oladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davomida iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion rivojlanishiga shart-sharoit yaratishga alohida e'tibor berilib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyulidagi PF-165 sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni bilan mamlakatimiz innovatsion rivojlanish strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiya iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo'jaligi, energetika, qurilish, ta'lif, sog'liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanish bo'yicha davlat siyosatining maqsadli yo'nalishlarini belgilab berib uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog'ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;
- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;
- kichik tadbirdorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'sishini ta'minlash;
- yangi turdag'i mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning kompleks tizimini shakllantirish va bu orqali innovatsiyalar talabini rag'batlantirish;
- innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlanirish.

Shuningdek, mazkur strategiya doirasida innovatsion faoliyat subyektlari ya'ni sanoat ishlab chiqarish tashkilotlari sonini 613 tadan 2250 tagacha yetkazish, innovatsion infratuzilma subyektlari sonini 3 baravarga oshirish, innovatsion tadbirdorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o'rirlari sonini 4 baravarga oshirish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, yangi innovatsion ishlanmalari sonini 2 baravarga oshirish, innovatsion markazlar sonini 494 tagacha yetkazish, texnologik innovatsiyalar bilan shug'ullanuvchi mahalliy sanoat korxonalarini sonini 600 tagacha yetkazish, hududlarda yaratiladigan yangi texnologiyalar sonini 384 tagacha oshirish, yillik patentlar sonini 184 tagacha yetkazish va ko'plab boshqa vazifalar bajarilishi nazarda tutilgan [1].

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida sanoat tarmog'i ishlab chiqarishida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlarning ulushi oshishi ga erishildi. Jumladan, 2022-yil davomida avtotransport vositalari ishlab chiqarishga 39 foizga, oziqovqat mahsulotlari - 34,2 foizga, elektr uskunalar - 5,4 foizga, kiyim ishlab chiqarish 5,5 foizga o'sdi [2]. Shu bilan birga, sanoat korxonalarining rivojlanish dinamikasi hududlar kesimida bir xil emas, masa-

lan, Qoraqalpog'iston respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ushbu davrda 0,4 foizga o'tgan bo'lsa, Andijon viloyatida 22,6 foiz, Xorazm viloyatida 15,1 foizga o'sgan. Bundan tashqari sanoat tarmog'ining yalpi hududiy mahsuloti shakllanishidagi ulushi ham hududlar bo'yicha keskin farqlanadi. Bundan tashqari, sanoat mahsulotlarining texnologik darajasi bo'yicha tarkibida quyi va quyo'rta mahsulotlarning ulushi 74,8 foizni tashkil etadi, ayrim viloyatlarda esa 87,6 foizi aynan ushbu turdag'i mahsulotlardir [3].

Shu sababli mamlakatimizda sanoat tarmog'i ni innovatsion rivojlanishini ta'minlash maqsadida, hududlar sanoat tarmog'ini rivojlanish salohiyatini baholash, innovatsion jarayonlar rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Adabiyotlar tahlili. Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlanirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari ko'plab iqtisodchi olimlarining tadqiqotlarida o'r'in olgan. Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsiya tushunchasini (atamasini) dastlab qo'llagan olim Y.Shumpeter bo'lib, u o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" (Theory of Economic Development) nomli asarida innovatsion jarayon natijasidagi o'zgarishlarni quyidagi besh yo'nalishga ajratib ko'rsatib bergan:

- yangi texnik va texnologik o'zgarishlar yoki ishlab chiqarish jarayonini yangi bozor talablari asosida tashkil etish;
- yangi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini diversifikatsiyalash;
- ishlab chiqarish jarayonlarida yangi xomashyolardan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishda innovatsion boshqaruvi usullaridan foydalanish;
- yangi iste'mol bozorlarini shakllantirish [4].

Keyinchalik, sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyati ko'plab ilmiy tadqiqot natijalarida ko'rishimiz mumkin. Masalan, P.Drukerning fikricha, "Biznesning asosiy maqsadi mijozlarni jalb qilish bo'lganligi sababli korxonani ikkita asosiy funksiyasi mavjud marketing va innovatsiya" dan iborat [5]. Innovatsiyalarning mamlakatlar barqaror o'sishida va korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim drayver vazifasini bajarishi ko'plab boshqa tadqiqotlarda ham aniqlangan. Ushbu tadqiqotlarda innovatsiya tushunchasiga turlicha yondashgan. Bir guruh tadqiqotchilar innovatsiya jarayonini tarmoqda yangi va texnologik murakkab mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'lashgan bo'lsa, boshqa bir guruh tadqiqotchilar innovatsiya sifatida ko'proq yangi boshqaruvtashkiliy munosabatlar shakllanishi masalalariga o'z e'tiborlarini qaratishgan.

Xususan, Ferreyra J. bir guruh olimlar bilan Portugaliya sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi oshishida boshqaruvdagi kreativlik va innovatsion yondashuv muhim o'rin tutishini aniqlashgan[6].

Ulardan farqliroq, J. Utterbek va F. Suareslar mamlakat sanoat tarmog'i tarkibining shakllanishi va rivojlanishini ko'p jihatdan yangi texnologiyalar vujudga kelishi bilan bog'lashgan. Ularning fikricha, biror bir sohada yangi texnologiya paydo bo'lishi ushbu tarmoqning raqobatbardoshligi oshishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi[7].

Turkiyalik iqtisodchi olimlar ham turkiy avtomobilsozlik tarmog'ida o'tkazgan tadqiqotlarida ham tarmoqdagi korxonalar raqobatbardoshligiga texnologik innovatsiyaning ijobjiy ta'sirini notexnologik innovatsiyalar (tashkiliy va marketing) esa sezilarli ta'siri yo'qligini aniqlashgan[8].

Korxonalarning rivojlanishida innovatsiyalar ning o'rni mamlakatimizning ko'plab iqtisodchi olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, R.Rashidov kichik biznesni innovatsion rivojlanishining hududiy imkoniyatlarini tadqiq etgan[9].

B.Baxtiyorov maqolasida Markaziy Osiyo mamlakatlari sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining hozirgi holati tahlil etilib Markaziy Osiyo mamlakatlari va O'zbekiston sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvining rivojlanish tendensiyalari qiyosiy taqqoslangan va mavjud muammolar aniqlangan [10]. Ablakulov K. mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fan-tehnika taraqqiyoti va innovatsion jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etgan [11].

Hozirgi kunda innovatsion jarayonlar korxonalar iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bir vaqtda ekologik barqarorlikka ham ijobjiy ta'sir etishi muhim hisoblanadi. Shu sababli so'nggi davrda iqtisodiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyot, energiya tejamkorligi, tiklanuvchi ener-

giyadan foydalanish samaradorligi kabi yo'nalishlarda innovatsion jarayonlarni tadqiq etish juda dolzarbdir.


Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolani yozish jarayonida ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

Shuningdek ushbu jarayonda davlat tadqiqot va statistik ma'lumotlari rasmiy manbalardan olinib, taniqli iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashning zaruriy sharti ekanligi barchamizga ma'lum. Bu borada P. Drukerning quyidagi fikriga alohida to'xtalib o'tish lozim. Uning fikricha "biznesning asosiy maqsadi mijozlarni jaib qilish bo'lganligi sababli korxonani ikkita asosiy funksiyasi mavjud marketing va innovatsiya" dan iborat deb hisoblaydi[5].

Shu o'rinda aytish joizki 2021-yil yakunida mamlakatimizda marketing innovatsiyalarni joriy qilgan korxona va tashkilotlar soni jami 29 tani tashkil etgan bo'lib ulardan: Ishlab chiqarish sanoati-9, Qurilish-2, Axborot va aloqa-1, Moliya va sug'urta faoliyati-4, Ta'lim-1, Iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari - 12. (1-rasm)

Davlat ijtimoiy ahamiyatga ega innovatsion loyihibar: transport, kommunikatsiyalar, energetika, uy-joy communal xo'jaligi sohalarida zamonaviy texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarni amalga oshirishda bevosita xo'jalik yurituvchi subyekt (investor) sifatida ishtirok etishi mumkin. Shu bilan birga, qulay foiz va soliq stavkalari, kredit resurslari ko'lami korxonalarning innovatsion strategiyasini amalga oshirishda prinsipial ahamiyatga ega.




1-rasm. Marketing innovatsiyalarni joriy qilgan korxona va tashkilotlar soni (faoliyat turlari kesimida)[2]

Davlat innovatsion sohada ijobjiy o'zgarishlar uchun shart-sharoit yaratmoqda. Ilm-fanni talab qiluvchi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga sarmoya kiritayotgan investorlarni soliq imtiyozlari, davlat kafolatlari va kreditlarni subsidiyalash orqali qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish ko'zda tutilgan. Davlatning innovatsion sohadagi muhim vazifalaridan biri mulkchilik va moliyalashtirish turlaridan qat'iy nazar, barcha subyektlar tomonidan innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida soliq tizimini takomillashtirishdan iborat. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda bu, birinchi navbatda, soliq solinadigan bazani aniqlashtirish, yuqori texnologiyali uskuna-

larga sarmoya kiritishni rag'batlantiradigan amortizatsiya siyosatini shakllantirishdir.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil yakunida mamlakatimizda ishlab chiqarish sanoatida joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni 2359 tani tashkil etgan. Ishlab chiqarish sanoatida joriy qilingan texnologik innovatsiyalarни o'z kuchi bilan amalgalash oshirgan tashkilotlar 2264 tani tashkil qiladi. Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda esa 82 ta, boshqa tashkilotlar tomonidan texnologik innovatsiyalarini joriy qilgan sanoat korxonalari 13 tani tashkil qilgan.

2021-yil yakunlarida esa, mamlakatimizda texnologik innovatsiyalarini joriy qilgan tashkilotlar soni 1098 tani tashkil etgan (2-rasm).




2-rasm. 2021- yilda Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida texnologik innovatsiyalarini joriy qilgan tashkilotlar soni (birlik)[2]

Ma'lumotlardan bilish mumkinki eng yuqori ulush ishlab chiqarish sanoatida bo'lib, unda 669 ta texnologik innovatsiyalarini joriy qilgan, ya'ni 44,2 foizni, iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari bo'yicha 274 tani ya'ni 40,2 foizni tashkil qiladi. Eng past ko'rsatkichga ega bo'lgan tarmoq sog'liqni saqlash

va ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'lib 4 tani tashkil qilgan.

2022-yil ma'lumotlariga ko'ra 2021-yilda innovatsiyalarini joriy etgan korxona va tashkilotlar statistikasiga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulush ishlab chiqarish sanoatida ku-zatilib, 44,2 %ni tashkil etgan (3-rasm).



3-rasm. 2021- yilda Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida texnologik innovatsiyalarini joriy qilgan tashkilotlar soni (mingta)[2]

Sanoat korxonalarini innovatsion jihatdan tahlil qilishda albatta ularni kichik sanoat korxonalar va katta sanoat korxonalariga bo'lib o'rganish ular o'rtasida sezilarli farq borligini ko'rsatadi. Katta korxonalarda, odatda katta xavf bilan o'zining innovatsion g'oyasini ishlab chiqishni istamaydi. Katta korxonalar uchun mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizlikning oqibatlari kichik firmaga qaraganda ancha yuqori. Shu sababli, yirik firmaning innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish bilan bog'liq ehtimoliy xarakterdagi tadqiqotlarda ishtirot etishining asosiy yo'nalishi bunday ishlanmalarga ixtisoslashgan kichik innovatsion firmalarni tavakkal moliyalashtirishni amalga oshirishdir. Kichik firmalar boshqarvi jarayonining qulayligi, shaxsiy tashabbusning keng doirasasi, moslashuvchan ilmiy-texnik siyosat yuritish imkoniyati, ixtirochilarining o'z faoliyatiga faol jalb etilishi bilan farqli hisoblanadi. Ularning aksariyati innovatsiyalar bo'yicha taraqqiyotga, yangi mahsulotlar va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtrishga salmoqli hissa qo'shmaqda.

AQSh Milliy Fan Jamg'armasining kichik va katta korxonalar innovatsion samaradorligini aniqlash hisob-kitoblariga ko'ra, ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan har bir dollar uchun 100 kishigacha bo'lgan firmalar 100 ta yirik firmaga qaraganda to'rt baravar ko'p innovatsiyalarni amalga oshirgan. -1000 ishchi va 1000 dan ortiq kishi ishlaydigan kompaniyalardan 24 baravar ko'p. Ularning innovatsiya darajasi yirik kompaniyalarga qaraganda uchdan bir baravar yuqori, bundan tashqari, kichik firmalar o'z innovatsiyalari bilan bozorga kirishi uchun o'rtacha 2,22 yil, yiriklari esa 3,05 yilni oladi. Yirik firmalarning ilmiy-tadqiqot ishlarining an'analiviy shakllariga nisbatan tavakkalchilikli moliyalashtrishda ishtirot etishi nafaqat daromadning oshishi, balki ularning bevosita iqtisodiy manfaatlari bilan ham bog'liq. Gap shundaki, mustaqil kichik fir-

malar soliq va boshqa imtiyozlardan foydalanadi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturlari doirasida bevosita moliyaviy yordam oladi.

Mamlakatimiz hududida 2021-yil hisobida hududlar kesimida texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan kichik korxona va mikrofirmalar son eng yuqori ulush Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 240 tani tashkil qilgan. Undan keyingi o'rnlarda Navoiyda 199, Toshkent viloyatida 111, Surxondaryoda 107 ta kichik korxona va mikrofirmalar texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan (4-rasm).

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun bu katta ahamiyatga ega korxonalarning innovatsion salohiyati. Korxonalarning innovatsion salohiyatini baholash quyidagi guruhlarga birlashtirilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar to'plami asosida amalga oshiriladi:


ilmiy-texnikaviy: fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalari, kashfiyotlar, ixtirolarning soni, ilmiy qoloqlikning kattaligi;

moddiy-texnikaviy: innovatsiyalarni yaratish va joriy etish bo'yicha tajriba-konstrukturlik ishlarini eksperimental jihozlar bilan texnik jihozlash darajasi;

axborot: ilmiy, texnik, loyiha hujjalari, reglamentlar va boshqalar ko'rinishidagi innovatsiyalarga xizmat ko'rsatadigan axborot oqimining hajmi;

kadrlar: ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga xizmat qiluvchi xodimlar tarkibi; ilmiy darajaga, faxriy unvonga, diplomga ega bo'lgan xodimlar soni; innovatsiyalarda band bo'lganlarning umumiy xodimlar sonidagi ulushi;

tashkiliy va boshqaruv: innovatsiyalarni boshqarish bosqichlari soni, boshqariladigan innovatsion loyihalari va axborot oqimlari soni; innovatsion: yangi mahsulotlarning ilmiy intensivligi; mahsulotlar, ishlar, texnologiyalarning yangilik darajasi;



4-rasm. 2021-yilda Hududlar kesimida texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan kichik korxona va mikrofirmalar son [2]

intellektual mahsulot - innovatsiyalar nati-jasida olingan patentlar, litsenziyalar, nau-xaular soni; bozor: yangi mahsulotlarning raqobatbardoshligi; yangi mahsulotlarga talab hajmi; ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini amalga oshirish uchun buyurtmalar soni;

iqtisodiy: innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligi; tadqiqot xarajatlari; intellektual mahsulot tannarxi; moliyaviy: ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga investitsiyalar, nomoddiy

aktivlar miqdori; innovatsion faoliyatni moliyalash-tirish manbalari.

Innovatsiyalar ishlab chiqarishning texnik va tashkiliy darajasini oshirishni ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy resurslardan (mehnat, mehnat vositalari, mehnat obyektlari) foydalanish intensivligi ko'rsatkichlarining oshishida namoyon bo'ladi, ya'ni ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy natijalarning yaxshilanishi kabi. Innovatsiyalar samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar quyidagi rasmda keltirilgan (5-rasm).



ishlab chiqarish hajmini oshirish;



mehnat, moddiy, moliyaviy resurslardan foydalanishni faollashtirish hisobiga ishlab chiqarish hajmlari o'sishi ulushini oshirish;



mahsulot birligiga material sarfini kamaytirish; mahsulot birligi tannarxini pasaytirish;



kapital ishlab chiqarishning o'sishi;



mehnat unumdorligini oshirish;



ishlab chiqarish rentabelligini oshirish;



mahsulot sotishdan olingan foydaning oshishi;

aylanma mablag'lar aylanmasini tezlashtirish;

5-rasm. Innovatsiyalar samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar [12]

Yuqorida ko'rsatkichlar bilan bir qatorda innovatsiyalarning investitsiya samaradorligi ko'rsatkichlari ajralib turadi. Innovatsiyalarga investitsiyalar samaradorligini baholashning o'ziga xos xususiyati shundaki, investitsiya xarajatlari tadqiqot va ishlanmalardan boshlanadi. Innovatsiyalarning foydali ta'sirini har doim ham iqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida baholash mumkin emas. Qisqa muddatda innovatsiyalarni joriy etish ko'pincha korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yomonlashtiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini olib borish qo'shimcha mablag'larni talab qiladi.

Yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish faoliyati xavfini oshiradi, innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida qarz

mablag'larining yuqori ulushi tufayli ko'pincha korxonaning moliyaviy barqarorligini pasaytiradi.

Yangi ishlab chiqarishni o'zlashtirish bosqichida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish kamayadi, xodimlarni qayta tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar ko'payadi va ishdan bo'shatish jarayonlari sodir bo'lishi mumkin. Biroq, uzoq muddatda innovatsiyalar foya keltiradi, korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, mamlakatimizda sanoat korxonalari ishlab chiqarishining modernizatsiyasini amalga oshirishda moliyaviy mablag'lar yetishmovchiligi asosiy muammo hisoblanadi. Jumladan, tadqiqotda ishtiroy etgan xususiy korxonalarning 58,1 foizi moliyaviy mablag'lar yetishmovchiliginи, 30,1 foizi esa qarz mablag'larining

yuqori foiz stavkalarini korxonalarining rivojlani-shidagi asosiy muammo sifatida qayd etganlar [12].

Bundan tashqari, mamlakatimiz eksportini rivojlantirishda uning tarkibida qo'shilgan qiymat yuqori sanoat mahsulotlarini ko'paytirish muhim. Sanoat korxonalarining tashqi bozorda faoliyat etish bo'yicha tajribasi yetishmovchiligi bilan bir qatorda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tashqi bo-zordagi texnik va iste'molchilar talablariga mos kelmasligi kabi muammolar mamlakatimiz sanoat korxonalar raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir etmoq-da[13].

O'z navbatida innovatsiyalar ham muhim ahamiyatga ega. Bunda, davlat organlarining muhim roli korxonalarining innovatsion rivojlanishi uchun sharoit va imkoniyatlarni ta'minlashdan iborat. Innovatsion rivojlanish qobiliyati – bu tashqi kuchlar bilan o'zaro ta'sirda tizimning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan, o'z asoslarida innovatsiyalarni yaratishga imkon beradigan bozor iqtisodiy tizimi-ning mulki. Maqsadli harakatlar uchun, balki korxonalarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va tartibga solish uchun davlat quyidagi vositalarga ega: kredit-moliyaviy, soliq va amortizatsiya siyo-satini rag'batlantirish; innovatsiyalar subyektlari va investorlar uchun iqtisodiy imtiyozlar tizimi; yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash.

Xulosa va takliflar. So'nggi yillarda mamlakatimizda sanoat tarmog'i korxonalarin rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu sohada amalga oshirila-

yotgan islohotlar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bir vaqtida uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori va texnologik jihatdan murakkab mahsulotlar ulushini ko'paytirishga e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, sanoatning rivojlanishida ichki va tashqi bozorlar konyunkturasini hisobga olish hamda energiya tejamkor ishlab chiqarishni rivojlanirish kabi masalalarning yechimini topish lozim. Shu sababli sanoat korxonalarinnovatsion faoliyati rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish hozirgi kuning dolzarb masalalaridan biridir. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning rivojlanishi bir qator omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi, ular orasida eng muhimlari qo'yidagilardir:

- ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni tezlashtirish;

- asosiy innovatsiyalar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni budgetdan moliyalashtirish;

- intellektual ijod mahsuli sifatida doimiy ravishda innovatsiyalar oqimini ta'minlovchi ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik tashkilotlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash;

- innovatsion faoliyatni rivojlanirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarga xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish, innovatsion infratuzilmani rivojlanirish;

- innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradigan, ularni raqobat asosida qabul qilishga qodir bo'lgan tadbirkorlik muhitini rivojlanirish.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldag'i PF-165-sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari <http://www/stat.uz>
3. Otamurodov Sh., Farmonova M. Hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sanoat korxonalarining o'rni. TISU ilmiy tadqiqotlari habarnomasi 1-soni 2023 yil.
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. -М.: Прогресс 1982. 388 срп.
5. Drucker P.F. Management: tasks, responsibilities, practices, Transaction Publishers, New Brunswick, NJ; London. – 2007.
6. Ferreira J., Coelho A. Dynamic capabilities, innovation and branding capabilities and their impact on competitive advantage and SME's performance in Portugal: the moderating effects of entrepreneurial orientation //International Journal of Innovation Science. – 2020. – Т. 12. – №. 3. – С. 255-286.
7. Utterback J. M., Suárez F. F. Innovation, competition, and industry structure //Research policy. – 1993. – Т. 22. – №. 1. – С. 1-21.
8. Atalay M., Anafarta N., Sarvan F. The relationship between innovation and firm performance: An empirical evidence from Turkish automotive supplier industry //Procedia-social and behavioral sciences. – 2013. – Т. 75. – С. 226-235.
9. Rashidov, R. (2022). Vozmojnosti regional dlya innovatsionnogo razvitiya malogo biznesa. Ekonomika i obrazovanie, 24(1), 275–280. izvlecheno ot <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/948>
10. Baxtiyorov B. Markaziy Osyo mamlakatlari va O'zbekistonda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi amaliyotining qiyosiy tahlili //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – Т. 10. – №. 3. – С. 95-104
11. Аблакулов К. (2022). Широкое использование научно-технического прогресса и инновационных факторов для увеличения прибавочной продукции. Экономика и образование, 24(1), 89–94. извлечено из <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/918>
12. Farmonova M.N. Industrial Development in Uzbekistan //Journal of Intellectual Property and Human Rights. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 23-31.
13. Otamurodov Sh. O'zbekiston sanoat mahsulotlari eksportining rivojlanish istiqbollari//Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 383-389.